



**Boburmirzo G'AYRATOV,**

*Yuriskonsult, 3-darajali yurist, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston*

*E-mail: mirzobobur381@gmail.com, Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0007-5898-7206>*

*Falsafa fanlari doktori, professor B.Omonov taqrizi asosida*

## HISTORICAL EVOLUTION AND MODERN APPROACHES IN THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF CORRUPTION

Annotation

This article examines the phenomenon of corruption from a socio-philosophical perspective. It analyzes definitions of corruption formed across a broad historical spectrum, from ancient philosophy to modern Western and Eastern scholarly traditions, as well as theoretical approaches that explain its essence and their methodological significance. The article also argues that corruption is not only a legal offense but also a manifestation of a moral and cultural crisis in society.

**Keywords:** corruption, social philosophy, moral crisis, public governance, functionalism, institutionalism, value system, cultural factors, accountability, anti-corruption policy.

## ИСТОРИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОМУ АНАЛИЗУ КОРРУПЦИИ

Аннотация

В данной статье феномен коррупции рассматривается с позиции социальной философии. В широком историческом срезе – от античной философии до современных западных и восточных научных школ — анализируются определения коррупции, теоретические подходы к объяснению её сущности и их методологическое значение. В статье обосновывается, что коррупция является не только правовым преступлением, но и продуктом нравственно-культурного кризиса.

**Ключевые слова:** коррупция, социальная философия, нравственный кризис, государственное управление, функционализм, институционализм, система ценностей, культурные факторы, подотчётность, антикоррупционная политика.

## KORRUPSIYANING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILIDA TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada korrupsiya hodisasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Antik falsafadan boshlab zamonaviy G'arb va Sharq ilmiy maktablarigacha bo'lgan keng tarixiy kesimda korrupsiyaga berilgan ta'riflar, uning mohiyatini tushuntiruvchi nazariy yondoshuvlar va ularning metodologik ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada korrupsiyaning nafaqat huquqiy jinoyat, balki axloqiy-madaniy inqirozning mahsuli ekanligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, ijtimoiy falsafa, axloqiy inqiroz, davlat boshqaruvi, funksionalizm, institutsionalizm, qadriyatlar tizimi, madaniy omillar, hisobdorlik, antikorrupsiya siyosati.

**Kirish.** Korrupsiya insoniyat tarixida davlatchilik va boshqaruv tizimlari yuzaga kelgan davrdan beri mavjud bo'lgan va har bir tarixiy davrda o'z ko'lamini kengaytirib, yangicha ko'rinishlar kasb etib kelgan. Ushbu hodisaning murakkabligi shundaki, uni faqat bitta fan doirasida to'liq tushuntirish mumkin emas: huquqshunos uni mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, iqtisodchi "agent-prinsipal" munosabatlar nuqtai nazaridan, ijtimoiy faylasuf esa institutsional, axloqiy, madaniy va ontologik o'lehamlarda ko'radi. Korrupsiya lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu atama tarixan keng ma'no doirasiga ega: u jismoniy narsalarning chirishi va axloqiy tubanlanishni ham ifodalagan. Shunday qilib, tushuncha o'zida aslida ikki ma'no – moddiy va ma'naviy buzilishni bir vaqtda aks ettirgan. Bu jihat korrupsiyaga berilgan falsafiy ta'rif uchun asosiy nuqtani belgilab beradiki, u nafaqat huquqiy jinoyat, balki insonning va jamiyatning axloqiy buzilishi, ya'ni ma'naviy tanazzulning belgisidir.

Zamonaviy sharoitda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkur uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tizimli islohotlar – iqtisodiy erkinlashtirish, ma'muriy-tuzilmaviy o'zgarishlar va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlash – korrupsiya hodisasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganishni yanada muhim va zarur qiladi. Zero, huquqiy mexanizmlar yetarli bo'lmagan hollarda korrupsiyaga qarshi kurash ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va madaniy transformatsiya orqaligina samarali natija berishi mumkin. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada korrupsiya hodisasiga tarix-falsafiy va zamonaviy-nazariy nuqtai

nazardan yondashiladi hamda uni yengishning ijtimoiy-falsafiy imkoniyatlari muhokama etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Korrupsiya hodisasiga e'tibor qaratgan ilk faylasuf va siyosiy mutafakkirlar orasida Arastu alohida o'rin tutadi. U o'zining "Siyosat" asarida davlat boshqaruvida adolatdan chekinishni va shaxsiy manfaatni jamoaviy manfaatdan yuqori qo'yishni tizimli axloqiy illat sifatida qattiq tanqid qildi. Arastu fikricha, davlatchilik "eudaimonia", ya'ni "fozil hayot"ni ta'minlash uchun xizmat qilmog'i lozim: bu maqsaddan chetlashish – siyosiy tuzumning buzilishi demakdir [2]. Arastu qarashlarining o'ziga xosligi shundaki, u korrupsiyani alohida shaxslar muammosi sifatida emas, balki butun siyosiy tuzumning inqirozi belgisi sifatida ko'rib chiqqan.

Qadimgi Rim faylasuf-notiq Tsitseronning siyosiy-falsafiy dialoglari "Davlat to'g'risida" va "Qonunlar to'g'risida" asarlarida korrupsiyaga o'xshash hodisalar fuqarolik fazilatlarini (virtus civilis) va adolat (iustitia) me'yorlarini buzadigan har qanday xatti-harakat oqibatida davlatning inqiroziga olib keladi degan g'oya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi [3]. Tsitseronning ushbu qarashi ham Arastu kabi korrupsiyani faqat individual nuqson sifatida emas, balki butun jamiyatning axloqiy asoslariga tahdid sifatida ko'rishga yordam beradi.

Sharq falsafiy merosida korrupsiya masalasi o'ziga xos tarzda ko'rib chiqilgan. Buyuk tarixchi-faylasuf Ibn Xaldun "Muqaddima" asarida korrupsiyani davlatlarning yuksalishi yoki inqirozini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida tahlil qildi. Uning qarashlariga ko'ra, hokimiyatda manfaatparastlik va pora

keng tarqalishi “asabiya” – jamoaviy birlik va hamjihatlik ruhini zaiflashtiradi va bu, o‘z navbatida, tamaddun inqirozini belgilaydi [4]. Bu yondashuv alohida diqqatga sazovorki, Ibn Xaldun korruptsiyani ayrim shaxslarning axloqiy nuqsoni sifatida emas, balki tizimli hodisa sifatida ko‘radi.

Islom falsafiy-axloqiy an‘anasida poraxo‘rlikka berilgan baho nihoyatda qat‘iyatli bo‘lgan. Ibn Hajar al-Asqaloniyning asarlarida pora beruvchi ham, oluvchi ham qoralanadi va poraxo‘rlik odamlar o‘rtasidagi adolatni buzadigan, jamoat manfaatlariga zarar yetkazadigan holat sifatida baholanadi [5]. Bu yondashuv korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy va axloqiy o‘lchamlari bir-birini to‘ldirishi zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda korruptsiyani tushuntirishga uringan bir necha yirik ilmiy maktab shakllangan. Funktsionalistik yondashuv namoyandalari S.Xantington, N.Leff va D.Baylilar korruptsiyani rivojlanayotgan jamiyatlarda noqulay ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarga “moslashuv vositasi” sifatida talqin qiladilar. S.Xantingtonning “O‘zgarayotgan jamiyatlarda siyosiy tartib” asarida ilgari surilgan kontseptsiyaga ko‘ra, “rivojlanish jarayonida yangi iqtisodiy manfaat guruhlari norasmiy yo‘llar orqali siyosiy qarorlarni o‘z foydalariga ta‘sir qilishga harakat qiladilar” [8]. Ushbu yondashuv, to‘g‘ri, jiddiy tanqidga duchor bo‘lgan: mavjud holatlarga ruxsat berish uni me‘yorga aylantirish xavfini tug‘diradi.

Ikkinchi asosiy yo‘nalish — institutsional va tuzilmaviy yondashuv. R.Rouz-Akermanniig “Korruptsiya va davlat: sabablar, oqibatlar va islohotlar” monografiyasida korruptsiya noqonuniy tovar-pul almashinuvi, ya‘ni «pora bozori» sifatida ko‘rsatiladi. Olimaning fikricha, “korruptsiyaning paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit uch omil — davlat monopoliyasi, mansabdor shaxsning ixtiyoriylik doirasining kengligi va hisobdorlikning zaifligidan iboratdir” [9]. Bu yondashuv korruptsiyaning tizimli tabiatini, ya‘ni uni faqat yomon odamlar emas, balki yaxshi odamlarni ham poraxo‘rlikka undovchi tizim mavjudligi sabab yuzaga kelishini aniq ko‘rsatadi.

K.J.Fridrixning “Siyosatning patologiyasi: Zo‘ravonlik, xiyonat, korruptsiya, yashirqlik va targ‘ibot” asarida korruptsiyaning mohiyati “davlat manfaatini shaxsiy manfaatga sotish” [12] tarzida ta‘riflanadi va u “siyosiy o‘lim”ning belgisi hamda “davlatning ichdan yemirilishi” deb baholanadi. Ushbu kontseptsiya nafaqat siyosiy falsafa, balki ijtimoiy falsafa uchun ham muhim ahamiyatga ega: korruptsiya faqat ayrim shaxslarning xatosi emas, balki tizimli siyosiy kasallikdir.

Nemis faylasufi Yu.Xabermasning “Kommunikativ faoliyat nazariyasi” korruptsiya fenomenini yangicha nuqtayi nazardan yoritishga imkon beradi. Xabermas kontseptsiyasiga ko‘ra, bozor va davlat byurokratiyasi “tizim” sifatida “hayot dunyosi”ga, ya‘ni insonlarning kommunikativ axloqiga bosim o‘tkazishi mumkin. “Bozor mantig‘i (pul) davlat hokimiyati bilan norasmiy shartnoma bog‘laganida, “hayot dunyosi”ning axloqiy me‘yorlari tizim manfaatlari tomonidan ezib tashlanadi” [13]. Bu yondashuv korruptsiyani iqtisodiy yoki huquqiy hodisa doirasidan chiqarib, uni ijtimoiy kommunikatsiyaning buzilishi sifatida ko‘rsatadi.

B.V.Xustedning “Boylik, madaniyat va korruptsiya” mavzusida olib borgan tadqiqotida korruptsiya va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasidan shunday muhim xulosa chiqariladi: “korruptsiyaga qarshi samarali kurash faqat huquqiy mexanizmlar emas, balki madaniy transformatsiyani ham talab etadi. Bu ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan prinsipial ahamiyatga ega” [17]. Mazkur xulosa korruptsiyaga qarshi kurashda kompleks yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu o‘rinda T.A.Nestikning “Korruptsiya va madaniyat” tadqiqotidagi asosiy fikrga murojaat etish maqsadga muvofiq. Olim korruptsiyani “madaniy kodning buzilishi” sifatidagi hodisa tarzida ko‘rishni taklif etadi. Uning ta‘kidlashicha, jamiyatda korruptsiyaning “me‘yorga aylanishi”, aholining uni “hayotning oddiy qismi” deb qabul qila boshlashi korruptsiyaga qarshi ko‘rilayotgan huquqiy chora-tadbirlarni amalda besamar qilib qo‘yadi [18]. Ushbu kuzatuv korruptsiya muammosini faqat

huquqiy emas, balki madaniy-ontologik nuqtai nazardan o‘rganish zarurligini asoslaydi.

O‘zbekiston faylasuflarining izlanishlarida ham korruptsiya masalasi sezilarli o‘rin egallay boshladi. Professor I.Ergashevning ta‘kidlashicha, “Demokratiya milliy va umumbashariy qadriyat sifatida ijtimoiy adolat va huquqiy tenglik tamoyillariga asoslanadi” [23], demak, bu tamoyillarning buzilishi – korruptsiyaning hukmronligi – demokratik qadriyatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid hisoblanadi. O‘zbekiston faylasuflarining nazariy merosida Zh.Tulenov va Q.Nazarovlarning ijtimoiy falsafa va aksiologiya sohasidagi fundamental ishlari korruptsiyani qadriyatlar inqirozining mahsuli sifatida ko‘rishga metodologik asos yaratgan.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korruptsiya hodisasini tushuntirish borasida ikkita asosiy ilmiy maktab – funktsionalizm (korruptsiya moslashuv vositasi sifatida) va institutsionalizm (korruptsiya tizimli nuqson sifatida) – shakllanib, zamonaviy tadqiqotlar esa ushbu ikki yondashuv o‘rtasidagi dialektik ziddiyatni hal etishga intilib, korruptsiyani nafaqat iqtisodiy-huquqiy, balki madaniy-aksiologik va ontologik nuqtai nazardan o‘rganishni taqozo etmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Korruptsiya hodisasining ijtimoiy-falsafiy tahlili uni ko‘p qirrali va serqatlam hodisa sifatida ko‘rishni zarur qiladi. Ushbu qismda korruptsiyaning ontologik, aksiologik va kommunikativ o‘lchamlarini alohida ko‘rib chiqish orqali uning mohiyati yanada chuqurroq ochib beriladi.

Birinchi jihatdan, korruptsiyaning ontologik tabiatiga nazar tashlansa, bu hodisaning mavjudlik asosida ikki ziddiyatli qutb – “lozim bo‘lgan” va “mavjud bo‘lgan” o‘rtasidagi keskin tafovutdan iborat ekanligi ko‘zga tashlanadi. Davlat institutlari va boshqaruv tizimlari qonun hujjatlari va axloqiy me‘yorlar orqali belgilangan “lozim bo‘lgan” tartibda ishlashi kerak. Biroq amaliyotda mansabdor shaxslar o‘z shaxsiy manfaatlarini jamoat manfaatlaridan ustun qo‘yganlarida “mavjud bo‘lgan” holat vujudga keladi. Aynan mana shu ontologik bo‘shlik – ideal va real o‘rtasidagi keng jarlik – korruptsiya uchun qulay muhit yaratadi. Shuning uchun ham korruptsiyaga qarshi kurashda faqat qonunlarni takomillashtirish yetarli bo‘lmay, tizimning o‘zini qayta qurish zaruriyati tug‘iladi.

Ikkinchi jihatdan, korruptsiyaning aksiologik o‘lchami – ya‘ni qadriyatlar tizimi bilan aloqasi – alohida muhimlik kasb etadi. Jamiyatda qadriyatlar inqirozi yuz berganda, ya‘ni vijdon, adolat, halollik kabi umumiy qadriyatlar o‘z boshlovchi rolini yo‘qotib, o‘rnini shaxsiy boyitishga intilish va qonun bilan hisoblashmaydigan mentalitet egallaydi, korruptsiya uchun madaniy-psixologik zamin yuzaga keladi. Bu jarayon o‘ta xavfli, chunki u yashirin tarzda kechadi: bir necha avlod davomida asta-sekin «norasmiy me‘yor» sifatida qaror topgan korruptsiya xatti-harakat keyinchalik jamiyatda “tabiiy narsa” sifatida qabul qilinadi. Natijada, nafaqat alohida mansabdor shaxslar, balki butun jamiyat qadriyatlar darajasida korruptsiyani rad etish qobiliyatini yo‘qotadi. Korruptsiyaga qarshi kurash demak, birinchi galda, qadriyatlar tizimini sog‘lomlashtirish demakdir.

Uchinchi jihatdan, korruptsiyaning kommunikativ o‘lchamini tahlil etish ham o‘ta zarurdir. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar qonuniy va axloqiy me‘yorlar asosida qurilganda, jamiyatda ishonch muhiti shakllanadi. Biroq korruptsiya munosabatlar bu sog‘lom muloqot tizimini buzib, uni “pul-xizmat” almashinuvi sxemesiga aylantiradi. Natijada fuqarolarning davlat institutlariga nisbatan ishonchi zaiflashadi, ijtimoiy kapital eroziyaga uchraydi. Bu o‘z navbatida davlat boshqaruvining samaradorligini pasaytiradi va ijtimoiy birlikni yemiradi. Demak, korruptsiya faqat iqtisodiy zarar keltirmaydi – u avvalo ijtimoiy muloqotni, insonlar va institutlar o‘rtasidagi ishonch ko‘prigini vayron etadi.

O‘zbekiston misolida korruptsiyaning ijtimoiy oqibatlarini ko‘rib chiqsak, bir qancha muhim xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, tranzit iqtisodiyot sharoitida – bozor munosabatlari to‘liq mustahkamlangan va huquqiy institutlar endigina shakllanib borayotgan bir vaqtda – mansabdor shaxsning “ixtiyoriylik doirasi” obyektiv ravishda kengayadi, hisobdorlik

mexanizmlari esa hali to'liq ishlamaydi. Bu holat korrupsiyaning tarqalishi uchun tizimiy qulay sharoit yaratadi. Ikkinchidan, an'anaviy mahalliy madaniyatda, "o'z odamiga" xizmat qilish, "tanish-bilishchilik" orqali masalani hal etish kabi qadimiy ijtimoiy normalar mavjud bo'lib, ular ayrim hollarda zamonaviy qonuniy-huquqiy munosabatlar bilan nozik ziddiyatga kirishadi. Bu kulturologik omillarni hisobga olmagan holda amalga oshirilgan korrupsiyaga qarshi siyosat kutilgan natijani bermaydi.

Korrupsiyaning tizimiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu hodisa bir vaqtning o'zida uchta darajada namoyon bo'ladi: individual darajada – mansabdor shaxsning axloqiy tanlovida; institutsional darajada – tizim o'zining hisobdorlik va nazorat mexanizmlarining samaradorligida; madaniy-qadriyatlar darajasida – jamiyatning korrupsiyaga nisbatan munosabati va uni qabul qilish yoki rad etish darajasida. Ushbu uch darajani bir vaqtda inobatga olgan kompleks yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyatning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, korrupsiya faqat moddiy-moliyaviy zarar keltiruvchi hodisa emas. Uning eng og'ir oqibati — axloqiy-ma'naviy yemirilish – ko'zga ko'rinmas tarzda kechadi. Yosh avlod korrupsion xatti-harakat ustunlik qiladigan muhitda kamol topganida, uning dunyoqarashiga "adolat emas, tanishchilik ishlaydi", "qonun kuchlilarga emas, zaiflar uchun" kabi salbiy fikrlar singib ketadi. Bu esa uzoq muddatda jamiyatning rivojlanish salohiyatini chuqur zararlaydigan psixologik inqirozga olib keladi. Shuning uchun ham korrupsiyaga qarshi ta'lim-tarbiya, fuqarolik ongini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz ishlar o'ta muhim strategik ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, huquqiy mexanizmlar va ma'muriy nazorat bilan bir qatorda ijtimoiy ong va madaniy omillar ham sezilarli o'zgarishlarga uchrarmoqda. Ochiq hukumat, "Xalq qabulxonalar", raqamli davlat xizmatlari kabi tizimli yangiliklar mansabdor shaxslarning ixtiyoriylik doirasini toraytirish va hisobdorlikni kuchaytirish yo'lida muhim qadamlar sifatida baholanadi. Biroq bu jarayonning barqaror va uzoq muddatli natija berishi uchun uni ijtimoiy-falsafiy asoslarni mustahkamlash, qadriyatlar tizimini sog'lomlashtirish va fuqarolik muloqotini rivojlantirish bilan uyg'un ravishda olib borish zarur.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqot korrupsiya hodisasining ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ko'p qirrali mohiyatini ochib berdi. Bir necha asosiy xulosani umumlashtirish mumkin.

Birinchidan, korrupsiya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra nafaqat huquqiy jinoyat, balki insonning va jamiyatning axloqiy-ma'naviy tanazzulining belgisidir. Huquqiy tahlil korrupsiyaning tashqi ko'rinishlarini tavsiflansa ham, uning chuqur ildizlari insonning qadriyatlar tizimida, jamiyatning madaniy kodida yashirinadi. Binobarin, korrupsiyaga qarshi samarali kurash uchun huquqiy choralar axloqiy-tarbiyaviy va madaniy yondoshuvlar bilan uyg'un olib borilmog'i zarur.

Ikkinchidan, korrupsiyani funktsional yoki faqat iqtisodiy hodisa sifatida ko'rish xatolarga olib keladi. Uning moslashuv vositasi sifatidagi talqini "mavjudni me'yorga aylantirish" xavfini tug'diradi. Aksincha, korrupsiyani ontologik, aksiologik va kommunikativ o'lchamlarda tahlil etish uning haqiqiy tabiatini to'liqroq ochib beradi va unga qarshi kurashda aniqroq strategik yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Uchinchidan, O'zbekiston sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirish uchun uchta asosiy yo'nalishda bir vaqtda harakat qilish zarur: birinchisi – institutsional va tizimiy: monopoliyani kamaytirish, qaror qabul qilishda ixtiyoriylik doirasini tartibga solish va hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlash; ikkinchisi – madaniy va aksiologik: jamiyatda adolat, halollik, fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlarni rivojlantirish va ta'lim-tarbiya tizimi orqali yosh avlodda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish; uchinchisi – kommunikativ va institutsional: ochiq hukumat tamoyillarini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlash.

To'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning roli kuchaytirilishi lozim. Falsafiy tahlil huquqiy va iqtisodiy yondoshuvlar ko'ra olmaydigan chuqur madaniy va ontologik qatlamlarga nazar tashlash imkonini beradi. O'zbekiston falsafa fanining rivojlanishi va antikorrupsiya siyosati o'rtasidagi sinergiyani yaratish – kelajakdagi ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i kerak.

Umuman olganda, korrupsiya muammosini yengish – bu bir zarbda hal etilmaydigan masala. Bu jarayon jamiyatning qadriyatlar tizimi, fuqarolik madaniyati va davlat institutlarining sifatini bir vaqtda yuksaltirish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Yangi O'zbekistonda bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu yo'lida katta qadam bo'lib, ularni ijtimoiy-falsafiy asoslar bilan to'ldirish va mustahkamlash – ilmiy hamjamiyatning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. «K» harfi. — Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. B.632.
2. Аристотель. Политика / Аристотель; пер. с древнегреч. С.А. Жебелева. — М.: АСТ. 2016.
3. Утченко С.Л. Политико-философские диалоги Цицерона («О государстве» и «О законах») // Марк Туллий Цицерон. Диалоги. — М.: Ладомир—Наука, 1994. — С. 153—174.
4. «Введение (ал-Мукаддима)». Составление, перевод с арабского и примечания А.В. Смирнова // Историко-философский ежегодник 2007. М., 2008. С. 187—217.
5. Ибн Хажар Аскалоний. Охират кунига тайёргарлик. Мунаббихот. / Таржимон: Анвар Аҳмад. Тузувчи: Иброҳим Нуруллоҳ. — Т.: Мунир. 192 б.
6. Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах. — М.: Прогресс-Традиция, 2004. — С.122.
7. Роуз-Аккерман С. Коррупция и государство. Причины, следствия, реформы / С. Роуз-Аккерман; пер. с англ. О.А. Алякринского. — 2-е изд. — М.: Логос, 2010. — С.56.
8. Friedrich C.J. The Pathology of Politics: Violence, Betrayal, Corruption, Secrecy, and Propaganda. — N.Y.: Harper & Row. 1972. — Б. 127.
9. Habermas J. The theory of communicative action. Vol.1. Reason and the rationalization of society. — Cambridge: MIT Press. 2004. — С. 342.
10. Husted B.W. Wealth, Culture and Corruption // Journal of International Business Studies. — 1999. — №2 (Vol.30). — Б. 345.
11. Нестик Т.А. Коррупция и культура / Т.А. Нестик // Экономическая теория преступлений и наказаний. — 2002. — №4. — С. 5.
12. Эргашев И. Демократия – миллий ва умумбашарий кадрят // Жамият ва бошқарув. — Тошкент. 2004. — №1. — Б. 12-13.